

SURXON VOHASI TOPONIMIYASIDA ETNIK QATLAMLAR

(OLACHOPON, JOBU, SARIQ,
CHIG'ATOY MISOLIDA)



Jumayev Mustafu Erkin o'g'li,
Termiz davlat universiteti
Jahon tarixi kafedrasida o'qituvchisi



O'g'uz yabg'uligi (750-1055) davlati bayrog'i

Аннотация.

Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati hududidagi etnotoponimlarning kelib chiqishi, tarixiy-etnik ildizlari hamda shakllanish jarayonlari tahlil qilinadi. Xususan, Olachopon, Jobu, Sariq va Chig'atoy kabi qishloq nomlari misolida toponimlarning etnik tarkib, migratsiya jarayonlari, qadimgi turkiy unvonlar va urug'-qabila tizimi bilan bog'liqligi yoritilgan. Tadqiqot natijalari hudud toponimiyasining ko'p qatlamli tarixiy asosga ega ekanligini ko'rsatadi.

Калит so'zlar:

etnotoponim, toponimiya, Surxon vohasi, urug'-qabila, etnonim, migratsiya, Chig'atoy, Jobu, Sariq, Olachopon, tarixiy-lisoniy tahlil.

ЭТНИЧЕСКИЕ СЛОИ В ТОПОНИМИИ СУРХАНДАРЬИНСКОГО ОАЗИСА (НА ПРИМЕРЕ ОЛАЧОПОН, ДЖОБУ, САРЫК, ЧИГАТАЙ)

Аннотация:

В данной статье анализируются происхождение этнотопонимов на территории Сурхандарьинской области, их историко-этнические корни, а также процессы формирования. В частности, на примере названий населённых пунктов Олачопон, Джобу, Сарык и Чигатай раскрывается взаимосвязь топонимов с этническим составом, миграционными процессами, древнетюркскими титулами и родоплеменной системой. Результаты исследования показывают, что топонимия региона имеет многослойную историческую основу.

Ключевые слова:

этнотопоним, топонимия, Сурхандарьинский оазис, родоплеменная структура, этноним, миграция, Чигатай, Джобу, Сарык, Олачопон, историко-лингвистический анализ.

ETHNIC LAYERS IN THE TOPONYMY OF THE SURKHAN OASIS

(ON THE EXAMPLE OF
OLACHOPON, JOBU, SARIQ,
CHIGATAY)

Annotation:

This article examines the origins of ethnonym-based toponyms in the Surkhandarya region, their historical and ethnic roots, as well as the processes of their formation. In particular, using the examples of village names such as Olachopon, Jobu, Sariq, and Chigatay, the study highlights the relationship between toponyms and ethnic composition, migration processes, ancient Turkic titles, and tribal structures. The results demonstrate that the toponymy of the region is based on a multi-layered historical foundation.

Keywords:

ethnotoponym, toponymy, Surkhan oasis, tribal structure, ethnonym, migration, Chigatay, Jobu, Sariq, Olachopon, historical-linguistic analysis.


Toponimlar xalqning tarixiy, etnik va madaniy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim manbalardan biridir. Ayniqsa, etnotoponimlar muayyan hududda yashagan yoki yashab kelayotgan etnik guruhlar, urug'-qabilalar nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular orqali o'tmishdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va migratsiya harakatlarini aniqlash mumkin. Surxondaryo viloyati qadimdan turli xalqlar va qabilalar chorrahasi bo'lib kelganligi sababli, uning toponimiyasida etnik qatlamlar aniq namoyon bo'ladi. Ush-

bu maqolada hududdagi ayrim qishloq nomlari misolida etnotoponimlarning kelib chiqishi va rivojlanish xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu etnotoponimlar esa quyida birma-bir tahlil qilinadi:

Olachopon – Surxondaryo viloyatining Boysun va Muzrabot tumanlarida uchraydigan etnotoponim bo‘lib, u qatag‘on urug‘ining tog‘chi (tojik) qavmiga mansub aholining tarixiy shakllanishi bilan bog‘liqdir. Mazkur qishloq aholisi ajdodlari XIV asrda hududga ko‘chib kelganini e‘tirof etadi va shu asosda Olachopon nomi etnik hamda tarixiy ildizlarga ega bo‘lgan toponim sifatida qaraladi. Qishloq nomining kelib chiqishi yuzasidan bir necha ilmiy va xalq og‘zaki rivoyatlar mavjud. Jumladan, Sh.Xolmirzayev hamda M.Safarov tomonidan ilgari surilgan fikrga ko‘ra, qishloq nomi Afg‘onistonning Balx viloyati hududidan ko‘chib kelgan ajdodlar tomonidan o‘z yurtlari nomi asosida berilgan. Boshqa talqinlarga ko‘ra esa, “olachopon” atamasi to‘qimachilikdagi “olacha” matosi yoki milliy kiyim – rang-barang chopon bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu hudud aholisi orasida chavandozlik va polvonlik an‘analari bilan uyg‘unlashgan. Shuningdek, ayrim qarashlarga ko‘ra, hududga dastlab joylashgan kishilar olachopon kiygan bo‘lib, bu holat joy nomining shakllanishiga sabab bo‘lgan. Til xususiyatlari ham muhim omil bo‘lib, tojik shevasida “o” tovushining “a” tarzida talaffuz qilinishi “Alachopon” shaklining keng qo‘llanishiga olib kelgan. Muzrabot tumanidagi Olachopon nomi esa XX asrning 30–40-yillarida Boysun hududidan aholi ko‘chirilishi natijasida yangi joyga ko‘chib o‘tgan toponim sifatida izohlanadi¹.

Jobu – Surxondaryo viloyatining Oltinsoy tumanida, Hisor tog‘lari etagida joylashgan qishloq nomi bo‘lib, u qadimgi turkiy etnonim bilan bog‘liq holda shakllangan. Mazkur nom o‘zbek urug‘laridan biri – yobu (yabu) nomi bilan aloqador bo‘lib, uning ildizi qadimgi turkiy “yabg‘u” unvoniga borib taqaladi².

“Yabg‘u” atamasi qadimgi turk bitiklarida keng uchraydi va dastlab g‘arbiy turklarda oliy hukmdor yoki qabila ittifoqi boshlig‘iga berilgan siyosiy unvon sifatida qo‘llangan. Keyinchalik bu atama etnonimga aylanish jarayonini boshdan kechirib, “yaboqu” shaklida qabila nomiga aylangan³. Mahmud Koshg‘ariy ma‘lumotlariga ko‘ra, yaboqular yirik turkiy qabilalardan biri bo‘lib, ular keng hududlarda yashagan hamda VII asrda Chag‘oniyon hududiga kirib kelgan qarluqlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Tarixiy manbalarda, xususan, Qutayba ibn Muslim davriga oid ma‘lumotlarda ham qarluqlar jabg‘usi bilan olib borilgan janglar qayd etilgan bo‘lib, bu yaboqlarning siyosiy va harbiy hayotdagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi⁴. Shuningdek, qadimgi Chag‘oniyon hududidagi Budrach nomi ham yaboqu hukmdorlarining unvoni bilan bog‘liq



deb qaraladi. Fonetik rivojlanish jarayonida “yabg‘u” → “jabg‘u” → “yaboqu” → “yabu” shakllari yuzaga kelgan. Qipchoq shevalari ta‘sirida esa so‘z boshidagi “y” tovushi “j”ga almashib, hozirgi “Jobu” shakli vujudga kelgan.

Sariq – Surxondaryo viloyatining Qiziriq tumanida joylashgan qishloq nomi bo‘lib, u umumturkiy etnonim asosida shakllangan toponim hisoblanadi. “Sariq” atamasi turkiy xalqlar – turkman, qozoq, qirg‘iz, boshqird, qoraqalpog‘ va o‘zbeklar tarkibida uchraydigan qabila, urug‘ hamda urug‘ tarmoqlarining nomi sifatida keng tarqalgan. Mazkur etnonim turli urug‘-qabila tizimlarida ham qayd etiladi. Jumladan, qo‘ng‘irotlarning ayrim bo‘limlarida⁵, laqaylarda (sarichol), qatag‘onlarda (sariqatag‘on, sari-bosh), shuningdek mang‘it va boshqa qabilalarda “sariq” yoki unga yaqin shakldagi urug‘ nomlari mavjud. Bundan tashqari, “sariq” komponenti yirik etnik birliklar tarkibida ham uchrab, masalan, sariq uyg‘ur, sariq nayman, sariq qipchoq kabi shakllarda kichik tarmoq yoki bo‘limni ifodalagan. Etnonimning kelib chiqishi totemik tasavvur-

1 Абдурасулов Абдумўмин, “Алачопоним менинг”. “Тафаккур”. 2014-й, 9-10-14-бет

2 Ўзбекистон жоу номлари изоҳли луғати. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг Давлат тилини ривожлантириш департаменти. Тошкент: 2024. 279-б

3 Махмуд Косг‘арий. Девону луғатит турк (Туркий сўзлар девони). Ж. 1. – Тошкент: Ўзбекистон Фанлар Академияси нашриёти, 1960. 43-бет.

4 История ат-Табари, Пер. В. И. Беляева, О. Г. Большакова, А. Б. Халидова Ташкент. Фан. 1987, стр. 106.

5 Қаршиев И. “Сурхон-Шеробод воҳаси кўнғиротларининг худудий жойлашуви ва этномаданий хусусиятлари” тарих фанлари бўйича фалсафа докторлиги диссертацияси. Термиз. 2023. 30 б

lar bilan bogʻliq deb qaraladi. Ayrim manbalarda “sariq” soʻzining chorvachilik bilan aloqador maʼnolari ham qayd etilib, masalan, tatar tilida “sarik” – “qoʻy”, “sariqchilik” esa “qoʻychilik” maʼnosini anglatadi. Bu esa etnonimning qadimiy xoʻjalik faoliyati bilan uzviy bogʻliqligini koʻrsatadi.

Chigʻatoy – Surxondaryo viloyatining Boysun, Jarqoʻrgʻon, Termiz va Sherobod tumanlarida uchraydigan qishloq nomi boʻlib, etnonim asosida shakllangan toponim hisoblanadi. Oʻzbekiston hududida “Chigʻatoy” nomli joylar keng tarqalgan boʻlib, bu nomning ildizi tarixiy-siyosiy va etnik jarayonlar bilan chambarchas bogʻliqdir. Mazkur etnonim Chigʻatoyxon nomi bilan bogʻliq boʻlib, Chingizxon oʻzining ikkinchi oʻgʻliga Movarounnahr hududini boshqarish uchun topshirganidan soʻng bu yer aholisi “Chigʻatoy ulusi” deb atalgan. XIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllangan ushbu atama dastlab siyosiy-hududiy birlikni bildirgan boʻlsa, keyinchalik etnonimga aylangan. Chigʻatoy ulusi tarkibida turkiy va eroniy xalqlar yashagan boʻlib, ularning barchasi umumiy holda “chigʻatoylar” deb yuritilgan. Temuriylar davrida ham Movarounnahr aholisi shu nom bilan atalishda davom etgan. Shayboniylar davriga kelib esa bu hudud aholisi “oʻzbek” nomi bilan umumlashgan. 1957-yilda B.X. Karmisheva Surxondaryo hududida olib borgan dala tadqiqotlari asosida “chigʻatoy” masalasini ilmiy muammo sifatida koʻtarib chiqqan boʻlib, bu boradagi izlanishlar keyingi tadqiqotlar uchun muhim asos boʻlib xizmat qilgan¹. Surxon vohasidagi Oʻzbek aholisi tarixiy-etnografik jihatdan uch qatlamga ajratilgan: qabilaviy boʻlinmaga ega boʻlmagan aholi, ilk qabilalar hamda keyingi qabilalar. B.X. Karmisheva taʼkidlashicha, “oʻzbek” atamasi Sharqiy Buxoro hududida asosan uchinchi guruh – keyingi qabilalarga nisbatan qoʻllanilgan. Ikkinchi guruh odatda “turklar”, birinchi guruh esa “chigʻatoy” yoki “tojik” nomlari bilan atalgan².

Shu bilan birga, nomlanishdagi farqlarga qaramay, tadqiqotchi ushbu guruhlarining barchasi XIX–XX asrlar chegarasida yagona oʻzbek xalqiga mansub ekanini alohida qayd etadi. Biroq oʻsha davrdagi sovet milliy tasnifi qatʼiy qoʻllanilgani sababli, aralash etnografik guruhlarini toʻliq va xolis tasvirlash imkoniyati cheklangan. Natijada, ayrim etnik qatlamlar, xususan, xoʻjalar va chigʻatoylar baʼzan oʻzbeklar, baʼzan esa tojiklar tarkibida talqin qilingan.

Vaqt oʻtishi bilan chigʻatoylar yirik etnik birlik sifatidagi mavqeini yoʻqotib, kichik guruhlariga boʻlinib, oʻzbek urugʻlari tarkibiga singib ketgan. Xalq shevalarida bu nom “chagʻatoy” yoki “Chexlar” shaklida ham qoʻllanadi. Natijada ushbu urugʻ vakillari yashagan hududlar – qishloq, mahalla va guzarlar “Chigʻatoy” nomi bilan atalgan.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, Surxon vohasidagi etnotoponimlar murakkab tarixiy-etnik jarayonlar mahsuli

hisoblanadi. Olachopon, Jobu, Sariq va Chigʻatoy kabi toponimlar qadimgi etnonimlar, siyosiy unvonlar, urugʻ-qa-bila tizimi hamda migratsiya jarayonlari asosida shakllangan. Ushbu nomlar hudud aholisi tarixiy xotirasi va etnik tarkibini aks ettiruvchi muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi. Shu bois etnotoponimlarni oʻrganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix va etnologiya fanlari uchun ham dolzarb hisoblanadi.

1 Karmisheva B.X. Некоторые данные к этногенезу населения южных и западных районов Узбекистана, «Краткие сообщения Института этнографии АН СССР», – XXVIII. – М., 1957. – С. 18

2 105. Karmisheva B.X. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – АН СССР. Институт этнографии. – М.: Наука, 1976. – С.64.